

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 08 | pp. 48-56 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYA QILISH TIZIMINI MOLİYALASHTIRISHNING RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI



Abdullaeva Shaxnoza Erkinovna

PhD, O'zMU, Iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası doktoranti

E-mail: shakhnoza_abdullayeva@list.ru

Annotatsiya: Maqolada aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tizimini nazariy asoslari tadqiq etilgan. Jumladan uzoq va yaqin xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlarning aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish bo'yicha qarashlari o'rganilgan. Shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyoti shakllanishi davri xususiyatlari tavsifi ochib berilgan. Qayta taqsimot mexanizmi asosida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyotiga qo'yiladigan talablar, ularning mohiyati ochib berilgan. Tadqiqot yakuni bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, aholini ijtimoiy himoya qilish, moliyalashtirish, ijtimoiy sug'urta, jamg'armalar.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы системы финансирования системы социальной защиты населения. В частности, изучаются взгляды зарубежных и отечественных экономистов на финансирование системы социальной защиты населения. Также раскрывается характеристика особенностей периода становления практики финансирования системы социальной защиты населения. Раскрываются требования к практике финансирования системы социальной защиты населения на основе перераспределительного механизма и их сущность. В заключение исследования разрабатываются научные предложения и практические рекомендации.

Ключевые слова: социальная защита, социальная защита населения, финансирование, социальное страхование, фонды.

Abstract: The article studies the theoretical foundations of the system of financing the social protection system of the population. In particular, the views of foreign and domestic economists on the financing of the social protection system of the population are studied. Also, a description of the features of the period of formation of the practice of financing the social protection system of the population is revealed. The requirements for the practice of financing the social protection system of the population based on the redistribution mechanism and their essence are revealed. At the end of the study, scientific proposals and practical recommendations are developed.

Keywords: social protection, social protection of the population, financing, social insurance, funds.

Kirish

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi uzoq yillardan buyon muntazam ravishda rivojlanib, turli ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar ta'sirida takomillashib, iqtisodiy fanda uni moliyalashtirishning samarali usul va yo'nalishlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib kelayotgan, ilmiy, hamda amaliy jihaatdan dolzarb ahamiyat kasb etuvchi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Umuman olganda, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilishi mamlakt aholisining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, bozor munosabatlari sababli vujudga keladigan aholi daromadlari tengsizligini yumshatish, aholi turmush farovonligining barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan tashkil topishi borasida ko'plab ilmiy qarashlar shakllangan. Ushbu tizimning samarali amal qilishi esa uni moliyalashtirish mexanizmiga bog'liq bo'lib, jahon amaliyotida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan turli ilmiy-nazariy qarashlar va yondashuvlar shakllanib, turli davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar bilan o'zaro bog'liqlikda mukammallashib kelayotganligi bilan xarakterlanadi.

Iqtisodiy fanda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish borasida o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, mazkur tizim shakllanishining ilk bosqichlarida bu turdagi chora tadbirlar asosan xayr-ehson, xayriya va jamoa yordamiga asoslangan holda amalga oshirilgan bo'lsa, industrial davrga kelib, turli mamlakatlar tomonidan shakllantirilgan markazlashtirilgan sug'urta va turli ijtimoiy sug'urtalar, jumladan, pensiya fondlari orqali moliyalashtirish keng qo'llana boshladi. Shuningdek, bugungi kunga kelib aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirishda davlat va mahalliy budjetlar, ish beruvchi va yollanib ishlovchilar hissalar, hamda xususiy jamg'armalaridan tashkili topgan murakkab tizim sifatida shakllangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanilgan.

Adabiyotlar tahlili

J. Midgley¹, S. Hikey² kabi uzoq, shuningdek, V.A. Skuratovskiy³, R.R. Larina⁴ kabi yaqin hamda, A.V. Vaxabov⁵, M.K. Abdullaeva⁶, B.B. Baxtiyorov⁷ singari mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining amal qilish xususiyatlari, unin rivojlanish tenjensiyalari va moliyalashtirish amaliyotlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar tadqiq etilgan.

Keltirib o'tilgan olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarni tizimli tahlil qilish asosida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyotining mohiyatini

¹ Midgley J. Social protection in countries experiencing rapid economic growth: Goals and functions. In J. Midgley and D. Piachaud (eds), Social Protection, Economic Growth and Social Change: Goals, Issues and Trajectories in China, India, Brazil and South Africa. Cheltenham, UK and Northampton, MA, USA: Edward Elgar Publishing, 2013. – pp. 7–28.

² Hickey S. Relocating social protection within a radical project of social justice. European Journal of Development Research 26, 2014. – pp. 322–37

³ Скуратовский В.А. Основы социальной политики: учеб. пособие / В.А. Скуратовский, А.Н. Палий. Киев: МАУП. 2002. 200 с

⁴ Ларина Р.Р. Модели социальной политики: сборник научных работ Донецкой государственной академии управления «Государственное регулирование экономического развития». Т. IV. Вып. 29-й. Сер. «Государственное управление». Донецк, 2005. С. 23–30

⁵ «Ijtimoiy siyosat». O'quv qo'llanma i.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida – Toshkent.: «Universitet», 2019. 242 b.

⁶ Абдуллаева М.К. Ижтимоий ҳимоя ва уни тартибга солишни такомиллаштириш йўналишлари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: 2008, 25 б.

⁷ Бахтиёрров Б.Б. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимининг иқтисодий механизмини такомиллаштириш йўналишлари: Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати 2020, 55 б.

tushuntirish borasida iqtisodiy fanda ishlab chiqilgan ilmiy qarashlar asosida uni rivojlanishini qadimgi davlatlar, industrial davr, institutsionilizatsiya, hamda yangi (yoki gibrid modellar) davri orqali to'rt bosqichga ajratishga erishildi.

Tahlil va natijalar

Shunga o'xshash ilmiy qarash yaqin xorijlik V.D. Roik⁸ izlanishlarida ham ko'zga tashlanadi. Olim jahon amaliyotida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini shakllanishini dastlabki bosqichini uch guruhga ajratgan holda, qadimgi, yangi kalendar va o'rta asrlar davri bilan bog'liq xususiyatlarini (1-jadval) ajratib ko'rsatib, bunda hayriya va jamoaviy yordam orqali aholini ijtimoiy himoya qilish ustuvorlik qilganligini isbotlaydi.

1-jadval

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyoti shakllanishi davri xususiyatlari⁹

Davr	Tarixiy hujjat yoki dalil	Ijtimoiy himoyaning xususiyatlari
Qadimgi davr		
e.a. XXIII asr	G'alla zaxirasini shakllantirish to'g'risida Misr malikasi Maata farmoni	Favqulodda holat bo'lganida davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatish
e.a. XVIII asr	Savdogarlarni o'zaro yordami to'g'risida Bobil shohi Xammurapi qonuni	Mol-mul sug'urtasi (kema va tovarlarni sug'urtalash)
e.a. XV-X asrlar	Finikiyalik savdogarlar tomonidan o'zaro sug'urtalash tashkilotini joriy qilinishi	
e.a. X asr	Rim imperiyasida sexlarda o'zaro yordamni shakllanishi	Hayot sug'urtasi
Yangi kalendar yuritish davri		
IV asr (370yil)	Kessariyada (Kichik Osiyoda) Buyuk Vasiliy tomonidan kasallar, yolg'iz qariyalar, nogiron va uy-joyi yo'q aholi uchun qishloq tashkil etilishi	Cherkov ijtimoiy yordami xususiyatlari
IV asr	Boylar tomonidan qashshoqlarga hayriya qilish to'g'risida Ioan Zlatoustning taklifi	Boylikni ixtiyoriy asosda jamiyatda qayta taqsimlash tamoyili
VI asr	Rim Papasi Pelagiy tomonidan birinchi qariyalar uyini tashkil etilishi	Ushbu tadbir ko'plab cherkovlarda yolg'iz, qari, qashshoq odamlar uchun maxsus joylarni tashkil etilishiga olib keldi.
O'rta asrlar		
X-XV	Ijtimoiy o'zaro yordam to'g'risida	Hayot sug'urtasi. Davlat ishchi va

⁸ Roik В.Д. Социальное страхование. 2-е изд., пер. и доп. учебник и практикум для академического бакалавриата. Издательство: Юрайт. 2018. с.73-74

⁹ Муаллиф томонидан тузилган

asrlar	qonun va qarorlar qabul qilinishi. 1256 yilda Reyn Ittifoqi kambag'allar foydasiga soliq joriy qildi.	xodimlariga qarilikda yordam berish.
1084 yil	Kenterberida (Angliya) kambag'allar uyi ochildi	Jamoatchilikka asoslangan ijtimoiy yordam
XII asr	Diniy jamiyatlar tomonidan bepul kasalxonalarining Italiya, Fransiya va Angliyada ochilishi. 1291 yilga kelib Yevropada 100ta shifoxona tashkil etildi, jumladan, 60tasi Italiyada, 25 tasi Fransiya, 7 tasi Germaniyada tashkil etilgan.	Diniy tashkilot tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishi
1215 yil	Angliyada "Erkinlikning buyuk xartiyasi"ni qabul qilinishi	Insonning erkinligi va qadr-qimmatini himoyasi
XIV-XV asrlar	Italiya va Fransiya qarilikka nisbatan annuitetlar va jamg'armalarni qo'llanilishi	Annuitet, jamg'arma va vasiyatni shaxsiy sug'urtalash mexanizmi
1388 yil	Angliyada "Qashshoqlar" to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi	Davlat tomonidan kambag'allarni haqiqiy va haqiqiy bo'lmagan qashshoqlarga bo'linishi, hamda sog'lom odamlarga tilanchilik qilishni man etilishi
1454 yil	Londonda qari dengizchilar uchun boshpana tashkil qilinishi	Shaharda kasbiy o'zaro yordam
1474 yil	Venesiyada qari dengizchilar uchun boshpana tashkil qilinishi	Shaharda kasbiy o'zaro yordam

O'rganishlarga ko'ra, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi shakllanishi bosqichida bu turdagi chora-tadbirlarni moliyalashtirishda davlat faqatgina favqulodda holatlardagina ishtirok etgan. Shuningdek, davlatning harbiy qo'shinlarida xizmat ko'rsatayotgan aholi ijtimoiy himoyasi davlat tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, jamiyatning boshqa a'zolarini ijtimoiy himoya qilishda asosan turli hayriya va jamoaviy yordamga asoslangan homiylik shaklidagi moliyalashtirishga asoslanilgan. Bunda mamlakat aholisining diniy qarashlari, jamiyatning urf-odatlar va jamoaviy qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etgan hisoblanadi, degan xulosaga kelindi.

Jahon xo'jaligida XVIII-XIX asrlarda sodir bo'lgan industrial inqilob sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirishning keyingi bosqichiga o'tildi. Ushbu davrda sodir bo'lgan industrial inqilob sababli mamlakatlarda jamiyatning ijtimoiy qiyofasi transformatsiyalashuvi vujudga kelib, aholi shaharlashishi natijasida jamiyat a'zolari tarkibida ishchilar sinfi shakllanib, ishsizlik, ish o'rnidagi baxtsiz hodisalar, qarilikni sug'urtalash kabi ijtimoiy muammolar ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Bunda mamlakatlarda bozor iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida jamiyat a'zolari turmush farovonligiga uning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida davlat aralashuvi

asosida ijtimoiy mummolarni hal etish zaruriyati ortdi. Industrial inqilob sharoitida davlat tomonidan aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirishda ijtimoiy sug'urta va pensiya tizimlari joriy etildi.

Tahlillarga ko'ra, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyotini rivojlanishining davlat aralashuvi bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi bosqichida asosan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari yetakchilik qilishgan. Jumladan, XIX asrning 80 yillaridan keyingi davrda Germaniya mamlakatida Otto fon Bismark tomonidan ilk bor davlat ijtimoiy sug'urta tizimining joriy etilishi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish bo'yicha jahon amaliyotida tub burilish yasadi.

Iqtisodiy fanda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyotini rivojlanishining ushbu bosqichiga xos bo'lgan xususiyatlarni tadqiq etishga qaratilgan tadqiqotlarga ko'ra, bu turdagi davlat aralashuviga asoslangan moliyalashtirish amaliyoti "qayta taqsonlanuvchi" tamoyillarga asoslanganligi bilan xarakterlanishi isbotlangan. Jumladan, P. Gertler¹⁰, M. Sichon¹¹, N. Pena-Migel¹² kabi uzoq xorijlik olimlar tomonidan maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida tadqiq etilgan. Natijalarga ko'ra, bu turdagi moliyalashtirish amaliyoti iqtisodiy adabiyotda "Pay-As-You-Go", "Pay-As-You-Run" yoki "Pay-As-You-Allocate" deb yuritilib, qayta taqsimot mexanizmiga asoslangan holda, mamlakat fuqarolarini turli kasalliklar, keksalik, homiladorlik, o'lim bilan bog'liq hodisalar va boquvchisini yo'qotish kabi ijtimoiy muammoli holatlarda aholining minimal daromadlarini davlat tomonidan kafolatlanishi bilan xarakterlanadi.

Tahlillar ko'rsatishicha, qayta taqsimot mexanizmiga asoslangan holda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyoti quyidagi talablarga (1-rasm) javob berishi kerak bo'ladi:

birinchidan, majburiy ishtirok – bunda mamlakat aholisi, jumladan, ish beruvchilar bilan birgalikda, yollanib ishlovchilarning majburiy badallari hisobidan real vaziyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya chora-tadbirlari moliyalashtiriladi;

ikkinchidan, moliyaviy barqarorlikning ta'minlanishi. Bunda majburiy tarzda, ya'ni, turli soliq va majburiy yig'imlar shaklida aholidan jalb etilayotgan moliyaviy resurslar hisobidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya dasturlarini moliyalashtirilishi uchun yetarli darajadagi kapitalning shakllanishiga erishilishi kerak bo'ladi;


uchinchidan, ijtimoiy himoya bilan ta'minlanganlik – bunda davlatga soliq yoki majburiy yig'imlarni o'z vaqtida to'lab kelayotgan mamlakat fuqarolari ular hayotida ijtimoiy himoya dasturlaridan foydalanishni taqozo etadigan holat sodir bo'lgan taqdirda, bu turdagi xizmatlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi nazarda tutiladi;

to'rtinchidan, moliyalashtirish samaradorligi – ya'ni, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi guruhlari uchun aajratilayotgan ijtimoiy nafaqalar ularning minimal darajadan nisbatan yuqoriroq turmush farovonligida yashashlari uchun yetarli bo'lishi talab etiladi.

¹⁰ Gertler P., Green B., Li R., Sreer D. The Welfare Benefits of Pay-As-You-Go Financing. FIT IN Initiative. Working Paper No 12, 2024. – 69 pages.

¹¹ Cichon M., Scholz W., van de Meerendonk A., Hagemeyer K., Bertranou F., Plamondon P. Financing social protection. Quantitative Methods in Social Protection Series: A series on financial, actuarial and statistical aspects of social security prepared jointly by the International Social Security Association and the Social Security Department of the International Labour Office. ILO, Geneva – 2004. – 663 pages.

¹² N. Pena Miguel, J. Inaki De La Pena Esteban. A first approach to a pay-as-you-go model for a social benefit in Spain. Cuadernos de Gestión, 2016. – 17 pages.



1-rasm. Qayta taqsimot mexanizmi asosida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyotiga qo'yiladigan talablar¹³

XX asrga kelib, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi to'liq davlat institutlari tomonidan amalga oshirilishi bilan birgalikda, uning qamrov darajasini kengaytirishga ustuvorlik qaratilishi natijasida iqtisodiy fanda ushbu bosqich aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini institutsionalizsiyalash va keng qamrovliligini ta'minlash bosqichi sifatida baholanadi. Iqtisodiy fanda o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, ushbu bosqichda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyoti ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdan to XXI asrning boshlarigacha bo'lgan davrda rivojlanib kelgan hisoblanadi. Jumladan, Ye. Thode¹⁴, M. Kolmar¹⁵ va H. Kremer¹⁶ kabi uzoq xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyotini rivojlanishining institutsionalizatsiya va keng qamrovlilik bosqichi rivojlanishida "1942 yilda Buyuk Britaniyada elon qilingan U. Beveridj tomonidan e'lon qilingan "Ijtimoiy sug'urta va ittifoqchilar xizmatlari (Social Insurance and Allied Services)" mavzusidagi hisobotidagi urushdan keyingi davrda mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan loyiha muhim ahamiyat kasb etdi. Unga ko'ra, mamlakatda ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishda ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish maqsadida "beshikdan qabrgacha" ijtimoiy dasturi asoslanish g'oyasi ilgari surilgan"¹⁷ bo'lib, bu turdagi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi uchun quyidagi xususiyatlar (2-rasm) xos hisoblanadi:

birinchidan, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyoti universal ijtimoiy ta'minot konsepsiyasiga asoslangan bo'lishi;

ikkinchidan, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimlari nafaqat ishchilar, balki, mamlakat aholisining turli ijtimoiy guruhlar uchun mo'ljallanganligi, hamda undan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi;

uchinchidan, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini majburiy sug'urta mexanizmi asosida davlat budjeti orqali to'liq moliyalashtirilishi;


¹³ Muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁴ Thode E. Securing Pensions for the Next Fifty Years – Achievements of Recent Reforms in Selected Countries. CESifo DICE Report 1, 2003. – pp. 3–10

¹⁵ Kolmar M. Beveridge versus Bismarck Public-pension Systems in Integrated Markets. Regional Science and Urban Economics 37, 2007. – pp. 649–69

¹⁶ Cremer H. and Pestieau P. Social Insurance Competition between Bismarck and Beveridge. Journal of Urban Economics 54, 2003. – pp. 181–96


¹⁷ 1942 Beveridge Report. [online resource]. URL: <https://www.parliament.uk/about/living-heritage/transformingsociety/livinglearning/coll-9-health1/coll-9-health/>



2-rasm. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyotining institutsionalizatsiya davri uchun xos xususiyatlar¹⁸

Umuman olganda, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish amaliyotini rivojlanishining institutsionalizatsiya davrida hukumat tomonidan erkin ijtimoiy-iqtisodiy bozor munosabatlari tizimidan ijtimoiy yordamni alohida ajratish orqali aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligini oshirishga ustuvorlik qaratilganligi aniqlandi.

Shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini zamonaviy moliyalashtirish davri XXI asrning boshlaridan beri rivojlanib kelmoqda. Ushbu davrda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini amal qilishi bo'yicha jahon xo'jaligida shakllangan turli model va usullardan o'zaro mutanosiblikda foydalanish orqali gibril moliyalashtirish usullarini rivojlantirishga ustuvorlik qaratilmoqda. Buning sababi sifatida global darajada ijtimoiy muammolarning avj olib borayotganligi keltiriladi. Jumladan, taraqqiy etgan mamlakatlarda tug'ilish darajasining keskin pasayishi, aholining qarishi, mehnat bozorida aholi bandiligining frilanser, vaqtinchalik ish kabi nostandart shakllariga o'tilishi oqibatida davlatning ijtimoiy xarajatlarining ortishi amaldagi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimlarini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish orqali yangich usullarni ishlab chiqishni taqozo etib kelmoqda.



3-rasm. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini zamonaviy moliyalashtirish amaliyotining tarkibiy tuzilishi¹⁹

Turli xalqaro tashkilotlar, jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)²⁰, Xalqaro ijtimoiy himoya assotsiatsiyasi (International Social Security Association – ISSA)²¹, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)²² kabi global darajada ijtimoiy-

¹⁸ Muallif tomonidan tuzilgan

¹⁹ Muallif tomonidan tuzilgan

²⁰ Cattaneo U., Schwarzer H., Razavi S., Visentin A. Financing gap for universal social protection: Global, regional and national estimates and strategies for creating fiscal space. ILO Working Paper 113, Geneva, 2024. – 48 pages.

²¹ Cichon M., Scholz W., van de Meerendonk A., Hagemeyer K., Bertranou F., Plamondon P. Financing social protection. Quantitative Methods in Social Protection Series: A series on financial, actuarial and statistical aspects of social security prepared jointly by the International Social Security Association and the Social Security Department of the International Labour Office. ILO, Geneva – 2004. – 663 pages

²² Scarpetta S. Financing Social Protection in OECD Countries: Role and Uses of Revenue earmarking. OECD Social, Employment and Migration

iqtisodiy tadqiqotlarni o'tkazib boruvchi tashkilotlar ma'lumotlarigaa ko'ra, bugunga kunda jahon amaliyotida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirishda turli model va usullardan foydalanish orqali takomillashtirilgan jamg'arma tizimlari (Funded System) bilan birgalikda, gibrid moliyalashtirish amaliyoti shakllangan bo'lib, davlat va xususiy sheriklik orqali qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilishga erishib kelinayotganligi aniqlangan.

Xulosa va takliflar

O'rganishlarga ko'ra, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini zamonaviy moliyalashtirish amaliyotining tarkibiy komponentlari quyidagi tartibda izohlanadi(3-rasm):

birinchi, jamg'arma tizimlari – bunda aholi o'z shaxsiy hisobvaraqlariga o'zlarining ijtimoiy shart-sharoitlarini yomonlashishi sharoitida undan foydalanish uchun moliyaviy resurslarni jamg'arib borishgan holda, zarurat tug'ilganda undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

ikkinchi, davlat va xususiy sheriklikka asoslangan moliyalashtirish amaliyoti bo'lib, ayrim iqtisodiy tadqiqotlarda ushbu usul gibrid moliyalashtirish amaliyoti sifatida baholanadi. Ushbu holat aholini ijtimoiy himoya qilish har qanday mamlakatning o'z aholisi oldidagi ijtimoiy majburiyatini aks ettirishi, shuningdek, davlat tomonidan moliyalashtirilishi lozimligini inobatga olgan holda, hukumat tomonidan xususiy sektor vakillariga nisbatan qo'llaniladigan imtiyoz va preferensiyalar asosida xususiy sektorning bu turdagi chora-tadbirlarni moliyalashtirishdagi ishtirokini kengaytirishga erishilganligi bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Midgley J. Social protection in countries experiencing rapid economic growth: Goals and functions. In J. Midgley and D. Piachaud (eds), Social Protection, Economic Growth and Social Change: Goals, Issues and Trajectories in China, India, Brazil and South Africa. Cheltenham, UK and Northampton, MA, USA: Edward Elgar Publishing, 2013. – pp. 7–28.
2. Hickey S. Relocating social protection within a radical project of social justice. European Journal of Development Research 26, 2014. – pp. 322–37
3. Skuratovskiy V.A. Основы социальной политики: учеб. пособие / V.A. Skuratovskiy, A.N. Paliy. Kiev: MAUP. 2002. 200 c
4. Larina R.R. Modeli sotsialnoy politiki: sbornik nauchnykh rabot Doneskoy gosudarstvennoy akademii upravleniya «Gosudarstvennoe regulirovanie ekonomicheskogo razvitiya». T. IV. Вып. 29-у. Ser. «Gosudarstvennoe upravlenie». Donesk, 2005. S. 23–30
5. «Ijtimoiy siyosat». O'quv qo'llanma i.f.d., prof. A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida – Toshkent.: «Universitet», 2019. 242 b.
6. Abdullaeva M.K. Ijtimoiy himoya va uni tartibga solishni takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2008, 25 b.

7. Baxtiyorov B.B. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari: Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati 2020, 55 b.
8. Roik V.D. Sotsialnoe straxovanie. 2-ye izd., per. i dop. uchebnik i praktikum dlya akademicheskogo bakalavriata. Izdatelstvo: Yurayt. 2018. s.73-74
9. Gertler P., Green B., Li R., Srearr D. The Welfare Benefits of Pay-As-You-Go Financing. FIT IN Initiative. Working Paper No 12, 2024. – 69 pages.
10. Cichon M., Scholz W., van de Meerendonk A., Hagemeyer K., Bertranou F., Plamondon P. Financing social protection. Quantitative Methods in Social Protection Series: A series on financial, actuarial and statistical aspects of social security prepared jointly by the International Social Security Association and the Social Security Department of the International Labour Office. ILO, Geneva – 2004. – 663 pages.
11. N. Pena Miguel, J. Inaki De La Pena Esteban. A first approach to a pay-as-you-go model for a social benefit in Spain. Cuadernos de Gestión, 2016. – 17 pages.
12. Thode E. Securing Pensions for the Next Fifty Years – Achievements of Recent Reforms in Selected Countries. CESifo DICE Report 1, 2003. – pp. 3–10
13. Kolmar M. Beveridge versus Bismarck Public-pension Systems in Integrated Markets. Regional Science and Urban Economics 37, 2007. – pp. 649–69
14. Cremer H. and Pestieau P. Social Insurance Competition between Bismarck and Beveridge. Journal of Urban Economics 54, 2003. – pp. 181–96
15. 1942 Beveridge Report. [online resource]. URL: <https://www.parliament.uk/about/living-heritage/transformingsociety/livinglearning/coll-9-health1/coll-9-health/>
16. Cattaneo U., Schwarzer H., Razavi S., Visentin A. Financing gap for universal social protection: Global, regional and national estimates and strategies for creating fiscal space. ILO Working Paper 113, Geneva, 2024. – 48 pages.
17. Cichon M., Scholz W., van de Meerendonk A., Hagemeyer K., Bertranou F., Plamondon P. Financing social protection. Quantitative Methods in Social Protection Series: A series on financial, actuarial and statistical aspects of social security prepared jointly by the International Social Security Association and the Social Security Department of the International Labour Office. ILO, Geneva – 2004. – 663 pages
18. Scarpetta S. Financing Social Protection in OECD Countries: Role and Uses of Revenue earmarking. OECD Social, Employment and Migration Working Paper No. 312. OECD, 2024. – 26 pages.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

